Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Email: mbtokhirov@umail.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlarini moliyalashtirish va boshqarish borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilingan hamda ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Xususan, Rossiya va Germaniya kabi mamlakatlarning ipoteka bozori modeli, davlat va xususiy sektor hamkorligi, garov tizimi, kredit reytingi hamda foiz stavkalarini belgilash usullari kabi jihatlar tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu tajribalarni O'zbekistonning moliyaviy tizimi, me'yoriy-huquqiy bazasi va bank amaliyotiga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola O'zbekistonda ipoteka kreditlarini yanada rivojlantirish, aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirish hamda tijorat banklarining bu boradagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ipoteka krediti, davlat dasturi asosida ipoteka, oilaviy ipoteka, IT uchun ipoteka, Uzoq Sharq ipotekasi, harbiy ipoteka, xorijiy fuqarolar uchun ipoteka.

Abstract. This article analyzes advanced international practices in the financing and management of mortgage lending by commercial banks and explores the possibilities of applying these practices in the context of Uzbekistan. In particular, the mortgage market models of countries such as Russia and Germany, public-private partnerships, collateral systems, credit rating mechanisms, and interest rate determination methods are examined. Additionally, the article provides recommendations for adapting these international experiences to Uzbekistan's financial system, regulatory framework, and banking operations. The study aims to contribute to the further development of mortgage lending in Uzbekistan, improve access to housing, and enhance the effectiveness of commercial banks in this area.

Key words: mortgage loan, state-subsidized mortgage, family mortgage, IT mortgage, Far East mortgage, military mortgage, mortgage for foreign citizens.

Аннотация. В данной статье проанализированы передовой зарубежный опыт в сфере финансирования и управления ипотечным кредитованием коммерческими банками, а также изучены возможности их применения в условиях Узбекистана. В частности, рассматриваются модели ипотечного рынка таких стран, как Россия и Германия, государственно-частное партнёрство, система залога, кредитный рейтинг, методы установления процентных ставок. Также в статье представлены рекомендации по адаптации этого опыта к финансовой системе, нормативно-правовой базе и банковской практике Узбекистана. Цель статьи — способствовать дальнейшему развитию ипотечного кредитования в Узбекистане, эффективному удовлетворению жилищных потребностей населения и совершенствованию деятельности коммерческих банков в данной сфере.

Ключевые слова: ипотечный кредит, ипотека по государственной программе, семейная ипотека, ипотека для IT-специалистов, ипотека Дальнего Востока, военная ипотека, ипотека для иностранных граждан.



KIRISH

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar hamda fuqarolarning turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar uy-joy bilan ta'minlash masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. Aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgan bir paytda ipoteka kreditlash tizimi ushbu ehtiyojni qondirishda muhim moliyaviy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, tijorat banklari tomonidan ipoteka kreditlarini samarali tashkil etish nafaqat aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, balki qurilish, moliya va sug'urta kabi bog'liq sohalarning ham rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari tajribasida ipoteka kreditlash tizimini moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy adolat hamda iqtisodiy faollikni ta'minlashning muhim omili sifatida qo'llab-quvvatlash hollari keng uchramoqda. Rivojlangan davlatlar bu borada ilg'or mexanizmlar va institutsional yondashuvlarni joriy etib, ipoteka kreditlarini keng ommalashtirishga erishgan. Aksincha, rivojlanayotgan davlatlarda bu tizim hali to'liq shakllanmagan yoki qator muammolarni boshdan kechirmoqda.

Mazkur maqolada ilg'or xorijiy davlatlarning ipoteka kreditlash borasidagi tajribalari tahlil qilinadi, ularning afzalliklari va o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi hamda O'zbekiston tijorat banklari amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olim T. Chinaevning fikriga ko'ra, ipotekali kreditlash – bu moliya-kredit va investitsiya instrumenti bo'lib, uy-joyli qo'zg'almas mulkni sotib olishning maqsadli kreditlash texnologik tizimini tashkil etadi. Uning asosida esa kredit mablag'larini qaytarishning kafolati sifatida qo'zg'almas mulkni garovga olish yotadi¹.

Ipotekani moliyalashtirish tizimi dastlab ipoteka moliyalash kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan tijorat banklari ham bu yo'nalishda faoliyat yuritib boshlagan. Uy-joy qurilishini moliyalashtirishning to'g'ri tashkil etilgan tizimi fuqarolarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan birga, qurilish, investitsiyalar va iqtisodiyotning boshqa tegishli tarmoqlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Erbas V.W. ta'kidlaganidek, xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, uy-joy ipoteka kreditlarining keng qo'llanilishi qashshoqlikni kamaytirishga, shuningdek, uy-joy fondi, infratuzilma va urbanizatsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi².

Xorijlik iqtisodchi olim Dolde M.J.ning fikricha, rivojlangan mamlakatlarda hozirda juda ilg'or ipoteka moliyalashtirish tizimlari mavjud bo'lib, ular ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan shaxslarning resurslarini moliyaga muhtoj bo'lganlarga yo'naltirish imkonini beradi. Bunda ipoteka bozorlari orqali yaratilgan turli moliyaviy kanallar mablag'larning samarali aylanishini ta'minlab, moliya bozorida barqarorlik va likvidlikni oshirishga xizmat qiladi³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizda ipoteka kreditlarini moliyalashtirishning joriy davrdagi xorijiy tajribalari tahlil qilingan hamda baholash mezonlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash, statistik va kombinatsion tahlil usullari qo'llanilgan bo'lib, ularning natijalari asosida aniq xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ipoteka kreditlari tizimini takomillashtirish katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Fuqarolarning arzon va sifatli uy-joy qurilishiga bo'lgan huquqlarini ta'minlash masalasi iqtisodiy hamda huquqiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqilishi lozim. Ipoteka kreditlarini berishda ishtirok etuvchi fuqarolar va qurilish kompaniyalarining huquqlari qonun bilan himoya qilinishi zarur. Iqtisodiy nuqtayi nazardan esa, ipoteka kreditlarini taqdim etishda qarz oluvchilar uchun imkon qadar qulay, tijorat banklari uchun esa yetarli darajada daromadli bo'lgan sharoitlarni yaratish muhimdir.

Rossiya Federatsiyasida 1992-yilda qabul qilingan "Garov to'g'risida"gi va 1998-yildagi "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlar birgalikda banklar faoliyati hamda garov munosabatlari uchun qonunchilik asosini ta'minlagan. Ipoteka kreditlari o'sishining faol bosqichi 2005-yilda boshlangan bo'lib, bu davrda 30 milliard rubl miqdorida kreditlar ajratilgan va ipoteka kreditlari sohasida 200 dan ortiq bank faoliyat yuritgan. Natijada berilgan ipoteka kreditlari soni sezilarli darajada oshgan, asosiy vazifa esa kreditlar sifatini tartibga solish va ularning oqimini barqarorlashtirishga qaratilgan.

1 Чинаев Т.В. Сущность и роль ипотечного жилищного кредитования в современной экономике. Вестник Башкирского университета. 2006. № 4.

2 Erbas, V. W. (2005), Information Finance Markets. Conclusions. New Agriculture is Transforming. Demand for Rural Financial Services.

3 Dolde, M.J. (2006), Sources of Funds for Mortgage Finance, Journal of Housing Research, 1(1): 139-61.



Biroq, 2008-yilda yuz bergan iqtisodiy inqiroz ushbu kredit dasturining deyarli to'xtashiga olib keldi: dastlabki to'lovlar bekor qilindi, ipoteka stavkalari ikki baravar oshdi va garov talablari kuchaydi. Eng yirik banklar tomonidan ipoteka kreditlari hajmi 2022-yilda ham kamaygan. Kuchli o'nlikka kiruvchi banklar tomonidan berilgan 1,2 million dona ipoteka kreditlarining umumiy hajmi 4,5 trillion rublni (-14%) tashkil etgan bo'lib, bu 2021-yilga nisbatan 29 foizga kamdir.

Davlat ipoteka kreditlarini o'z vaqtida qaytarishga ko'maklashadigan dasturlarni joriy etgan bo'lib, bu banklar faoliyatidagi moliyaviy xavflarni kamaytirishga hamda aholining uy-joy bilan ta'minlanishiga doir ijtimoiy masalalarni hal etishga xizmat qilmoqda. Keyingi yillarda esa o'rtacha og'irlikdagi stavka bo'yicha oylik miqyosda berilgan ipoteka kreditlarining umumiy dinamikasi tahlil etilgan (1-jadval).

1-jadval. 2019–2023-yillarda tuzilma bo'yicha ipoteka kreditlari hajmi dinamikasi⁴

Ko'rastkichlar	01.01.19 y.	01.01.20 y.	01.01.21 y.	01.01.22 y.	01.01.23 y.
Oyda berilgan kreditlar soni, birlik	151765	157590	156859	211835	161820
Oylik yo'nalishda berilgan kreditlar hajmi, mln rubl.	290854	341265	370046	560683	540760
Oy davomida berilgan ipoteka krediti uchun o'rtacha o'lchangan kredit davri.	187,4	200,0	215,0	225,0	255,1
Oy davomida berilgan o'rtacha ipoteka stavkasi, %	9,8	9,66	9,05	7,36	7,59

Har yili aholiga turli xil ipoteka dasturlari taqdim etiladi. 2019-yil 1-iyuldan boshlab aktsiyadorlardan olingan mablag'lar hisobidan turar joy komplekslarini rivojlantirish bilan shug'ullanadigan korxonalarning eskrou-hisobvaraqlariga o'tkazish imkoniyati saqlanib qolgan.

Shu o'rinda eskrou-hisobvaraqlari tushunchasiga to'xtalib o'tamiz: "eskrou hisobi — bu xaridor va sotuvchi o'rtasidagi xavfsiz hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan maxsus hisobdir. U eskrou hisobi deb ataladi, chunki undagi mablag'lar ma'lum shartlar bajarilganda avtomatik tarzda bir egasidan ikkinchisiga o'tadi.

Xaridor pul mablag'larini depozit hisobvarag'iga joylashtiradi, sotuvchi esa shartnomada oldindan belgilangan shartlarni bajarganidan so'ng ushbu mablag'ni yechib olishi mumkin. Bank mustaqil vositachi sifatida ushbu shartlarga rioya etilishini nazorat qiladi⁵ (2-jadval).

2-jadval. "Sberbank" ipoteka dasturlarining asosiy ko'rsatkichlari⁶

Dastur	Maqsad		
	Boshlang'ich to'lov	Foiz	Kredit summasi mln.rub.
Davlat dasturi asosida ipoteka	Yangi turar joy sotib olish yoki birlamchi bozorda uy sotib olish		
	15% foizdan	6.7% chegirma bilan asosiy foiz stavkasi 8%	0,3 dan 12 gacha
Asosiy dastur asosida ipoteka	Yangi turar joy sotib olish, yoki ikkilamchi bozorda, bino, yoki uy sotib olish, qayta moliyalashtirish		
	10 % foizdan	10,4 dan 13,2 foizga qo'shimchlar	0,3 dan 100 gacha
Oilaviy ipoteka	Yangi turar joy sotib olish yoki qayta moliyalashtirish		
	15 % foizdan	6 % chegirma bilan asosiy foiz stavkasi 5.3 %	0,3 dan 12 gacha
IT uchun ipoteka	Yangi turar joy sotib olish yoki uy sotib olish		
	15 % foizdan	5 % chegirma bilan asosiy foiz stavkasi 4.7 %	0,3 dan 18 gacha

4 Analitika [Электронный ресурс] / ДОМ.РФ: официальный сайт. — Режим доступа: дом.рф/mortgage/ (дата обращения: 25.09.2023).

5 <https://fincult.info/article/scheta-eskrou-cto-eto-i-zachem-oni-nuzhny/>

6 Ипотека [Электронный ресурс] / СБЕР БАНК: официальный сайт. — Режим доступа: www.sberbank.ru/ru/person/credits/home/buildings (дата обращения: 07.09.2023)



Uzoq Sharq ipotekasi	Yangi turar joy, yoki ikkilamchi bozorda, bino, yoki uy sotib olish		
	15 % foizdan	3 % chegirma bilan asosiy foiz stavkasi 1.7 %	0,3 dan 6 gacha
Harbiy ipoteka	Yangi turar joy, yoki ikkilamchi bozorda uy sotib olish		
	birinchi to'lovda 30 foizgacha	10,2 %	3 gacha
	birinchi to'lovda 30 foizgacha	9,8%	
Xorijiy fuqarolar uchun ipoteka	Yangi turar joy, yoki ikkilamchi bozorda bino, yoki uy sotib olish		
	20 % foizdan	asosiy 11,7 %	0,3 dan 100 gacha

Birgalikda qurilish ishtirokchilari uchun ushbu dastur xavflarni kamaytirishga imkon beradi. Turar-joy ishlab chiqaruvchilari aktsiyadorlarning mablag'larini deponent hisobvaraqlariga joylashtirib, ma'lum bir mulkning yakunlanishini kutish orqali loyihani moliyalashtirishga o'tmoqda. Ushbu o'zgarishlar qurilish ishtirokchilarining umumiy manfaatlarini himoya qilish hamda bozorda ko'chmas mulk narxining prognoz qilinayotgan oshishini qoplashga qaratilgan. Rossiyaning beshta yirik bankining ipoteka takliflarini ko'rib chiqaylik. Sberbank tizimli ahamiyatga ega bo'lib, Rossiyaning eng yirik banki sanaladi. Unda mamlakat bank sektori aktivlarining 36 foizdan ortig'i jamlangan. Bankka davlat tomonidan eng yuqori ustuvorlik beriladi. Yuqoridagi jadvalda Sberbank OAJning ipoteka dasturlari investitsiya maqsadi, dastlabki to'lov miqdori, foiz stavkasi, shuningdek, kreditning maksimal hajmi jihatidan ko'rib chiqilgan (3-jadval).

3-jadval. "VTB Bank" OAJ ipoteka dasturlarining asosiy ko'rsatkichlari⁷

Dastur	Maqsad		
	Boshlang'ich to'lov	Foiz	Kredit summasi mln.rub.
Davlat dasturi asosida ipoteka	Yangi turar joy sotib olish yoki qurish		
	15% foizdan	6.7% chegirma bilan asosiy foiz stavkasi 7 %	0,3 dan 12 gacha
Yangi turar joy uchun ipoteka	Yangi turar joy sotib olish		
	15% foizdan	10,4 dan 12,2 foizga qo'shimchalar	0,6 dan 60 gacha
Ikkilamchi bozor uchun ipoteka	Ikkilamchi bozorda joy sotib olish		
	10 % foizdan	6 % chegirma bilan asosiy foiz stavkasi 5.3 %	0,5 dan 60 gacha
Ipoteka oilali va farzandlila uchun	Yangi turar joy, uy sotib olish yoki qaytamoliyalashtirish		
	15 % foizdan	5 % chegirma bilan asosiy foiz stavkasi 4.7 %	0,3 dan 18 gacha
IT uchun ipoteka	Yangi turar joy, yoki ikkilamchi bozorda, bino, yoki uy sotib olish		
	15 % foizdan	5 % chegirma bilan asosiy foiz stavkasi 4.7 %	0,5 dan 30 gacha
Uzoq Sharq ipotekasi	Yangi turar joy, yoki ikkilamchi bozorda uy sotib olish		
	15% foizdan	1,7 dan 2 foizga qadar 0.1 % 3 kishilik va ko'p bolali oilalar uchun	6 gacha
Harbiy ipoteka	Yangi turar joy, yoki ikkilamchi bozorda bino, yoki uy sotib olish		
	Birlamchi 15 % foizdan	8.6 %	0,3 dan 3.2 gacha

Yuqoridagi jadvalda "VTB Bank" OAJ ipoteka dasturlarining asosiy ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin. Barcha dasturlarda boshlang'ich to'lov 15 foizni tashkil etadi. Foiz stavkalari turlicha bo'lib, eng kami 1,7 foiz, eng yuqorisi esa 12,2 foizni tashkil qiladi (4-jadval).

⁷ Программы ипотеки от ВТБ [Электронный ресурс] / ВТБ. — Режим доступа: www.vtb.ru/personal/ipoteka/ (дата обращения: 28.09.2023).

4-jadval. "Gazprombank" AJ ipoteka dasturlarining asosiy ko'rsatkichlari⁸

Dastur	Maqsad		
	Boshlang'ich to'lov	Foiz	Kredit summasi mln.rub.
Imtiyozli ipoteka	Yangi turar joy sotib olish		
	15% foizdan	6,2 dan 8 foizgacha	0,1 dan 15 gacha
Yangi turar joy uchun ipoteka	Birlamchi bozorda turarjoy sotib olish		
	15% foizdan	Asosiy foiz stavkasi 10.5 dan 13.5% gacha	0,1 dan 60 gacha
Ikkilamchi bozor uchun ipoteka	Ikkilamchi bozorda joy sotib olish		
	10 % foizdan	Asosiy foiz stavkasi 10.3 dan 13.5% gacha	0,1 dan 60 gacha
Ipoteka oilali va farzandlila uchun	Yangi turar joy sotib olish yoki uy qurish, qayta moliyalashtirish		
	15 % foizdan	asosiy foiz stavkasi 5,3 dan 11 foizga	0,1 dan 15 gacha
IT uchun ipoteka	Yangi turar joy, yoki uy sotib olish		
	15 % foizdan	4 dan 4,7 foizgacha	0,5 dan 18 gacha
Uzoq Sharq ipotekasi	Yangi turar joy sotib olish yoki uy qurish, qayta moliyalashtirish		
	15% foizdan	1,1 dan 1,6 gacha	0,1 dan 6 gacha
Harbiy ipoteka	Yangi turar joy, yoki uy sotib olish		
	Birlamchi 20 % foizdan	11 %	3,05 gacha

"Gazprombank" AJ 1990-yilda tashkil etilgan bo'lib, Rossiya iqtisodiyotidagi eng muhim kompaniyalardan biri — "Gazprom" OAJ tarkibiga kiradi. Bankning mijozlari 5 milliondan ortiq jismoniy shaxslar va 61 ming yuridik shaxsni tashkil etadi. Bank, avvalo, mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lgan yirik korxonalarga, jumladan, atom, kimyo, neft va gaz sanoatiga xizmat ko'rsatadi. Yuqoridagi 2.9-jadvalda "Gazprombank" AJ tomonidan taklif etilayotgan asosiy ipoteka dasturlari keltirilgan bo'lib, unda bank qarz oluvchilar uchun mavjud bo'lgan ipoteka yo'nalishlarining yetti turi ko'rsatilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'rib chiqilgan barcha banklarda ipoteka kreditini olish bir qator cheklavlarni nazarda tutadi:

- Qarz oluvchi kvartirani faqat tanlangan bank tomonidan moliyalashtiriladigan turar-joy majmuasida garovga qo'yishi lozim.
- Imtiyozli shartlarni olish imkoniyati tanlangan bankda ish haqi kartasiga ega bo'lgan qarz oluvchilarga beriladi.

2024-yilda Germaniyada amaldagi o'rtacha ipoteka stavkasi yiliga 3,5–4 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, Germaniyaning aksariyat banklarida minimal dastlabki to'lov turar-joy ko'chmas mulki qiymatining 10–20 foizi, tijorat mulki qiymatining esa 20–40 foizini tashkil etadi. Germaniyada ipoteka kreditini olish uchun chet el fuqarosi o'z to'lov qobiliyatini va mablag'larning kelib chiqishini tasdiqlashi kerak. Agar chet el fuqarosi Germaniyada doimiy yashamasa va mamlakatda daromadga ega bo'lmasa, ipoteka krediti orqali kvartira sotib olish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim.

Germaniyada ipoteka kreditini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni taxminan 2–4 hafta davom etadi. Agar mulk likvid bo'lsa, banklar kredit berishga ko'proq tayyor bo'ladi. Ya'ni, agar u Germaniyaning yirik shahri va yaxshi joylashuvga ega hududda joylashgan bo'lsa. Ikkilamchi uy-joy bozori ham kotirovka qilinadi, ammo banklar mulkning holati hamda amaldagi ijara shartnomasi mavjudligiga e'tibor berishadi.

Germaniyada tijorat ko'chmas mulkini ham sotib olish mumkin. Shu bilan birga, ijara shartnomasi kamida 3–5 yil yoki undan ko'p muddatga, uzaytirish imkoniyati bilan tuzilishi kerak. Moliyalashtirish, odatda, 50 foiz kapital bilan banklar tomonidan ta'minlanadi. Germaniyada ipoteka stavkalari rekord darajada past bo'lib, eng kam foiz stavkasi 0,40 foizni tashkil etadi. To'lov muddatlari 5, 10, 15 yoki 20 yilga mo'ljallangan. Germaniyadagi eng yirik banklar ipoteka kreditlarini eng qulay shartlarda taqdim etadilar (5-jadval).

8 Ипотека [Электронный ресурс] / Газпромбанк: официальный сайт. — Режим доступа: www.gazprombank.ru/personal/mortgage/?ysclid=ltl9bwukfx43478222 (дата обращения: 05.09.2023).

5-jadval. Germaniyadagi joriy ipoteka stavkalari⁹

Banklar	Kredit muddati: 5 yil	Kredit muddati: 10 yil	Kredit muddati: 15 yil	Kredit miqdori
BB-Bank	0,89 %	0,54 %	0,94 %	60%
Hypovereinsbank	0,40 %	0,45 %	0,85 %	60%
Postbank	1,52 %	1,11 %	1,32 %	60%
PSD Bank Nürnberg	0,54 %	0,69 %	0,84 %	60%
PSD Bank RheinNeckarSaar	-	0,76 %	0,86 %	60%
Santander	0,66 %	0,58 %	0,83 %	60%
Sparda-Bank Baden-Württemberg	0,59 %	0,74 %	0,98 %	60%
Sparda-Bank Hessen	0,70 %	0,75 %	1,12 %	60%
Steyle Bank	0,83 %	0,83 %	-	60 %

Mamlakatning norezidentlari obyektni sotib olish narxining 50 foizigacha yiliga 1,5–2 foiz, rezidentlar esa 100 foizgacha — yillik 0,89–1,5 foiz miqdorida kredit olishadi. 2010–2020-yillar oralig'ida Germaniyada ipoteka kreditlari bo'yicha foiz stavkasi 3,5 foizdan 0,8 foizgacha pasaydi. Bugungi kunda o'rtacha kapital nisbati 28 foizni tashkil etadi, 2010-yilda esa bu ko'rsatkich 33 foiz bo'lgan. 2020-yilning ikkinchi choragida Germaniya banklari 1,51 milliard yevro miqdorida ipoteka kreditlarini moliyalashtirgan, bu esa turar-joy ko'chmas mulkiga bo'lgan kuchli talabni ko'rsatgan.

O'nlab yillar davomida boylikning 20 foiziga ega bo'lish Germaniyada ipoteka kreditini olishning standart sharti bo'lib kelgan. Kichikroq miqdordagi kreditlar deyarli berilmagan, biroq ko'chmas mulk bozorida jadal rivojlanish davrida bu holat ahamiyatini yo'qotgan. Mulk sotib oluvchilar o'z mulklarini 90–100 foizgacha moliyalashtirishlari mumkin, ammo kapital ulushi kamaygan sari kredit qimmatlashishini yodda tutish zarur.

Xorijiy investorlar uchun bank krediti dastlabki rasmiylashtirish paytida obyekt qiymatining 50 foizigacha bo'lgan miqdorda beriladi. Tegishli xarajatlar xaridor tomonidan o'z kapitalidan to'lanadi. Qayta murojaat qilganda yanada qulay shartlar taqdim etilishi mumkin — moliyalashtirishning 70 foizigacha.

Ipoteka kreditini qaytarishning eng keng tarqalgan turi — bu oylik to'lovlardan iborat annuitet tizimi bo'lib, unda kreditning asosiy qismi va foiz to'lovlari teng qismlarda amalga oshiriladi. Ijara biznesini yuritishda ipoteka kreditini olish investorlarning ustuvor strategiyalaridan biri sanaladi, chunki bu investitsiyalarning rentabelligini sezilarli darajada oshiradi. Ijara kvartiralarining rentabelligi, qoida tariqasida, kredit to'lovlariga nisbatan 1,5–2 baravar yuqori bo'ladi.

Germaniyada ipoteka krediti orqali olingan kvartira investorga ipoteka bo'yicha foiz to'lovlarini soliq bazasidan chiqarish imkonini beradi, bu esa daromad solig'ining yillik miqdorini kamaytiradi.

Yangi bino uchun kreditni qanday olish mumkin? Germaniya banklari yuqori likvidlikka ega yangi binolardagi kvartiralarini moliyalashtirishga ijobiy munosabatda bo'ladi. Agar mulk uzoq muddatli ijaraga berilgan va barqaror ijara daromadi keltirayotgan bo'lsa, ikkilamchi ko'chmas mulk ham banklar uchun qiziqish uyg'otadi. Tijorat ko'chmas mulkini moliyalashtirish turar-joy ko'chmas mulkidan tubdan farq qiladi. Bu, bir tomondan, mulkning o'ziga qo'yiladigan talablar, ikkinchi tomondan esa xaridorning kreditga layoqatliligiga bog'liqdir. Masalan, tijorat ko'chmas mulkini kapitalsiz to'liq moliyalashtirish istisno qilinadi.

Yoshi katta potentsial kreditorlar ham Germaniyada uy-joy kreditini olish imkoniyatiga ega. Biroq pensiya yoshiga yaqin qarz oluvchilar uchun annuitet krediti shartlari yanada qat'iyroq bo'ladi. Germaniyada ipoteka kreditini keksa yoshdagi fuqarolarga berish tartibida odatda qarz oluvchilardan uy-joy kapitalining yuqori koeffitsientiga ega bo'lishi talab etiladi va foiz stavkasi besh yoki undan ortiq foizni tashkil qilishi mumkin, bu esa bugungi past foiz stavkalari sharoitida muammo tug'dirmaydi.

Ko'pgina moliya institutlari bu turdagi mijozlarga kreditni faqat hayot sug'urtasi taqdim etilgandagina berishadi. Ba'zida banklar merosxo'rdan ko'chmas mulk kreditini kafil sifatida imzolashni talab qilishadi. Agar qarz oluvchi vafot etsa, merosxo'r javobgar shaxs sifatida ipotekani to'lashni davom ettiradi. Keksa qarz oluvchilar nafaqat o'z banklariga, balki boshqa moliya institutlariga ham murojaat qilib, kredit shartlarini solishtirib chiqishlari maqsadga muvofiqdir.

⁹ Immobilien Zeitung (2023). Trends im deutschen Hypothekenmarkt. Wiesbaden, Deutschland: IZ Medien GmbH. Retrieved from: <https://www.iz.de>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ipoteka kreditlash tizimi nafaqat uy-joy muammosini hal etish, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Ilg'or xorijiy tajribalar, xususan Rossiya va Germaniya misolida, ipoteka kreditlash tizimini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun davlat tomonidan samarali tartibga solish, moliyaviy institutlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, garov tizimining ishonchligini ta'minlash hamda fuqarolarning moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida ham bu boradagi islohotlar izchil davom etmoqda. Mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, tijorat banklarining moliyaviy mahsulotlar portfelida ipoteka kreditlari ulushini oshirish va xalqaro tajribalarga mos zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarur. Ayniqsa, uzoq muddatli va past foizli ipoteka kreditlarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, ikkilamchi ipoteka bozorini rivojlantirish hamda ipoteka sug'urtasini joriy etish orqali tizimning barqarorligini ta'minlash mumkin.

Shunday qilib, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali O'zbekistonda ipoteka kreditlash tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolarning uy-joy bilan ta'minlanish darajasini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Чинаев Т. В. Сущность и роль ипотечного жилищного кредитования в современной экономике. Вестник Башкирского университета, 2006, № 4.
2. Erbas, V. W. (2005). Information Finance Markets. Conclusions. New Agriculture is Transforming. Demand for Rural Financial Services.
3. Dolde, M. J. (2006). Sources of Funds for Mortgage Finance. Journal of Housing Research, 1(1), 139–161.
4. Аналитика [Электронный ресурс] / ДОМ.РФ: официальный сайт. — Режим доступа: <https://дом.рф/mortgage/> (дата обращения: 25.09.2023).
5. Счета эскроу: что это и зачем они нужны — <https://fincult.info/article/scheta-eskrou-cto-eto-i-zachem-oni-nuzhny/>
6. Ипотека [Электронный ресурс] / СБЕР БАНК: официальный сайт. — Режим доступа: <https://www.sberbank.ru/ru/person/credits/home/buildings> (дата обращения: 07.09.2023).
7. Программы ипотеки от ВТБ [Электронный ресурс] / ВТБ: официальный сайт. — Режим доступа: <https://www.vtb.ru/personal/ipoteka/> (дата обращения: 28.09.2023).
8. Ипотека [Электронный ресурс] / Газпромбанк: официальный сайт. — Режим доступа: <https://www.gazprombank.ru/personal/mortgage/?ysclid=ltl9bwukfx43478222> (дата обращения: 05.09.2023).
9. Immobilien Zeitung (2023). Trends im deutschen Hypothekenmarkt. Wiesbaden, Deutschland: IZ Medien GmbH. Retrieved from: <https://www.iz.de>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
